



32.328. 11.78 (137)

Mansur URALOV,
O'qituvchi, Innovatsion va texnologiyalar universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: mansur.uralov@bk.ru

PhD U.Ergashev taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING EKSTREMIZMGA NISBATAN MUROSASIZLIK MUNOSABATINI O'RGANISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlarni ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini o'rganish metodologiyasi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, yoshlarni ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish masalasi nazariy jihatdan o'rganilib, uning psixologik, ijtimoiy va siyosiy mexanizmlari aniqlanganidan so'ng, ushbu jarayonni amaliy tadqiq etish uchun ilmiy metodologik asos zarur bo'lishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, davlat, siyosat, xavfsizlik, yoshlar, ekstremizm, radikalizm, metodologiya, murosasizlik, tahdid, ma'naviyat, strategiya.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ НЕТЕРПИМОГО ОТНОШЕНИЯ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА К ЭКСТРЕМИЗМУ

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения проанализированы мнения о методологии изучения нетерпимого отношения молодежи к экстремизму в Узбекистане. Также после теоретического изучения вопроса формирования у молодежи нетерпимого отношения к экстремизму и выявления его психологических, социальных и политических механизмов необходима научно-методологическая основа для практического исследования этого процесса.

Ключевые слова: Узбекистан, государство, политика, безопасность, молодежь, экстремизм, радикализм, методология, нетерпимость, угроза, духовность, стратегия.

METHODOLOGY FOR STUDYING THE INTOLERANT ATTITUDE OF YOUTH TO EXTREMISM IN UZBEKISTAN

Annotation

This article provides a scientific analysis of opinions regarding the methodology for studying the intolerant attitude of youth toward extremism in Uzbekistan. Furthermore, after the theoretical study of the issue of forming an intolerant attitude toward extremism among youth and the identification of its psychological, social, and political mechanisms, a scientific and methodological basis is required for the practical study of this process.

Keywords: Uzbekistan, state, politics, security, youth, extremism, radicalism, methodology, intolerance, threat, spirituality, strategy.

Kirish. Yoshlarni ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish masalasi nazariy jihatdan o'rganilib, uning psixologik, ijtimoiy va siyosiy mexanizmlari aniqlanganidan so'ng, ushbu jarayonni amaliy tadqiq etish uchun ilmiy metodologik asos zarur bo'ladi. Metodologiya - bu nafaqat tadqiqot usullarining majmuasi, balki ularning mantiqiy asoslanishi, tanlanishi va qo'llanilishi jarayonidir [1]. Shu boisdan, O'zbekiston sharoitida yoshlarning murosasizlik qarashlarini o'rganish uchun tanlanadigan metodologiya kompleks va interdisiplinar yondashuvga asoslanishi lozim.

Zamonaviy siyosatshunoslik va sotsiologiya fanlari ko'rsatadiki, ekstremizm va yoshlarning unga nisbatan munosabati bir qirrali hodisa emas, balki ko'p omilli jarayondir. Bu jarayonda individning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit va identitet mexanizmlari, shuningdek, davlat siyosati va global axborot oqimlari bevosita rol o'ynaydi [2]. Shu sababli, tadqiqot metodologiyasi ushbu omillarning har birini alohida va uyg'un holda tahlil qilish imkonini berishi kerak. Falsafiy nuqtai nazardan, metodologiya dialektik yondashuvga tayangan holda qarama-qarshiliklar va ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Masalan, yoshlarning bag'rikenglik qadriyatlarini va murosasizlik qarashlarini o'rtasidagi dialektik

bag'liqlikni ochib berish orqali ekstremizmga qarshi immunitet shakllanishini tahlil qilish mumkin [3].

Metodologiyaning yana bir muhim xususiyati - u tadqiqotda nazariy va amaliy uyg'unlikni ta'minlashi kerak. Nazariy yondashuvlar yoshlarning murosasizlik qarashlari qanday shakllanishini tushuntirsa, empirik metodlar bu jarayonning real ko'rinishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois O'zbekistonda olib boriladigan tadqiqotlarda so'rovnomalar, intervyular, kontent-tahlil, statistik ma'lumotlar hamda huquqiy hujjatlar tahlili keng qo'llanilishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlarni ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini o'rganish metodologiyasi nazariy poydevorga ega bo'lmasa, tadqiqot biryozlama va empirik kuzatuvlarga asoslanib qolishi mumkin. Shu bois, nazariy-metodologik asoslar sifatida uch asosiy yondashuv - dialektik falsafiy metod, sotsiologik paradigma va zamonaviy siyosiy nazariyalar uyg'unlashgan holda qo'llaniladi. Mazkur integratsiya yoshlarning qarashlari, xatti-harakatlari va ijtimoiy muhitdagi o'zaro ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Dialektika falsafada voqelikni qarama-qarshiliklar orqali rivojlanadigan jarayon sifatida talqin qiladi. Yoshlarning

murosasizlik qarashlarini ham dialektik yondashuvda tahlil qilganda, ular bag'rikenglik va radikalizm o'rtasidagi dinamik muvozanatda shakllanishi ayon bo'ladi. Masalan, yoshlar ongida bir tomondan insonparvarlik va milliy qadriyatlar ta'sir qilsa, ikkinchi tomondan global axborot oqimlari va mafkuraviy xurujlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu qarama-qarshiliklarning sintezi natijasida yoshlarning mafkuraviy immuniteti yoki, aksincha, murosasizlik qarashlari shakllanadi [5].

Karl Popper "ochiq jamiyat" g'oyasida bag'rikenglik paradoksini tahlil qilib, jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun murosasizlikka qarshi qat'iy pozitsiya zarurligini ta'kidlagan. Bu metodologik jihatdan shuni anglatadiki, yoshlar ongida murosasizlik qarashlarini shakllantirish ularni ekstremizmga qarshi immunitetli qilishning bir qismi sifatida talqin qilinishi mumkin. Dialektik tahlil bizga qarama-qarshiliklarni inkor etmay, balki ularni ilmiy asosda tushuntirish va nazariy modellashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologiyaning nazariy poydevorini, birinchi navbatda, dialektik falsafiy yondashuv tashkil etadi. Dialektika voqelikni qarama-qarshiliklar orqali rivojlanadigan jarayon sifatida tahlil qiladi [8]. Shu nuqtai nazardan, yoshlar ongida bag'rikenglik va murosasizlik qarashlari qarama-qarshi kuchlar sifatida bir-birini to'ldiradi. Ularning muvozanati esa ekstremizmga qarshi immunitet yoki, aksincha, radikalizmga moyillikni belgilab beradi. Popper o'zining "Ochiq jamiyat" haqidagi qarashlarida bag'rikenglik paradoksini asoslab, murosasizlikka qarshi qat'iy pozitsiya jamiyat barqarorligi uchun zarur ekanini ta'kidlagan. Shu jihatdan, dialektik metod yoshlarning mafkuraviy qarashlarini qarama-qarshiliklar sintezi sifatida tushuntirish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim metodologik tayanch - sotsiologik paradigmadir. Karl Mannheim yoshlarni jamiyatdagi eng sezgir va transformatsion qatlam sifatida ta'riflagan [9]. Dyurgkeym esa ijtimoiy integratsiya nazariyasida birdamlikning zaiflashishi murosasizlik qarashlarini kuchaytirishini ko'rsatgan.

Uchinchi yo'nalish - zamonaviy siyosiy nazariyalarga asoslanadi. Liberal-demokratik paradigma yoshlarni erkinlik va huquqlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali murosasizlikni kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydi. Xavfsizlik paradigmasi esa yoshlarning murosasizlik qarashlarini milliy xavfsizlik bilan bog'laydi. Siyosiy konstruktivizm nazariyasi esa yoshlar qarashlarini ijtimoiy diskurslar natijasi sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda yoshlar ongini tahlil qilishda nafaqat shaxsiy qarashlar, balki davlat siyosati, OAV va diniy-ma'rifiy institutlarning ta'siri ham inobatga olinishi shart.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston sharoitida dialektik yondashuv milliy qadriyatlar va global tahdidlar o'rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilishda muhimdir. Bir tomondan, Alisher Navoiy, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarning asarlarida bag'rikenglik qadriyatlarini yoshlarning ruhiyatiga singdirilmoqda; ikkinchi tomondan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan radikal kontent bu qadriyatlarni so'ndirishga urinmoqda. Shunday qilib, dialektika bu jarayonlarni yagona ilmiy modelda tushuntirishga xizmat qiladi.

Sotsiologik paradigma yoshlarning murosasizlik qarashlarini ijtimoiy guruhlar, institutlar va madaniy muhit bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Karl Mannheim yoshlarni jamiyatdagi eng tezkor transformatsion kuch sifatida talqin qilgan edi. Shu jihatdan, yoshlar siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarga tezroq javob beradi va shu bilan birga radikal g'oyalarga ham ko'proq moyillik ko'rsatadi. Dyurgkeym "ijtimoiy integratsiya" nazariyasida jamiyatdagi birdamlikning zaiflashishi murosasizlik qarashlarini kuchaytirishini

ko'rsatadi. Yoshlar o'zlarini jamiyatning muhim qismi sifatida his qilmagan taqdirda, ular alternativ ijtimoiy guruhlar, jumladan radikal guruhlar qo'shilishi mumkin. Shu boisdan, sotsiologik metodologiya yoshlarning ijtimoiy muhitini, oilaviy tarbiyani, ta'lim tizimini va do'stlar davrasini tahlil qilishni talab qiladi. Tajfel va Turnerning ijtimoiy identitet nazariyasiga ko'ra, "biz-ular" qarashlari ijtimoiy guruhlararo aloqalar zaif bo'lgan sharoitda kuchayadi.

Siyosiy nazariyalarda yoshlarning murosasizlik qarashlarini tushuntirishda muhim metodologik resurs bo'lib xizmat qiladi. Liberal-demokratik paradigma yoshlarni erkinlik va huquqlarni qadrlash ruhida tarbiyalash orqali murosasizlikni kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydi [6]. Xavfsizlik paradigmasi esa yoshlarning murosasizlik qarashlarini milliy xavfsizlik bilan bevosita bog'lab, uni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ko'radi. Siyosiy konstruktivizm nazariyasi murosasizlik qarashlarini ijtimoiy diskurs mahsuli sifatida tahlil qiladi [7]. Ya'ni, yoshlarning qarashlari davlat, OAV, diniy institutlar va global axborot oqimlari tomonidan shakllantirilgan diskurs natijasida paydo bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, metodologiya nafaqat individual qarashlarni, balki ularni shakllantiruvchi ijtimoiy-siyosiy diskurslarni ham tahlil qilishi kerak.

Zamonaviy siyosiy tizimlarda yoshlar masalasi faqat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doirasida emas, balki milliy xavfsizlik strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ham talqin etiladi. Chunki siyosiy nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, yosh avlod mafkuraviy tahdidlarga eng sezgir qatlam bo'lib, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari jamiyat barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, siyosiy metodologiyada yoshlar muhitidagi mafkuraviy jarayonlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish davlat siyosatining strategik vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqotda biz taklif qilayotgan integratsion metodologik model falsafiy-dialektik, sotsiologik va siyosiy yondashuvlarning uyg'unligiga asoslanadi. Dialektika qarama-qarshiliklarni tahlil qilishga, sotsiologiya yoshlarning ijtimoiy muhitini o'rganishga, siyosiy nazariya esa davlat siyosati va global diskurs ta'sirini anglashga xizmat qiladi. Shu tarzda metodologik sintez yoshlarning murosasizlik qarashlarini har tomonlama tahlil qilishga imkon beradi. O'zbekiston sharoitida bu integratsion yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki yoshlarning mafkuraviy qarashlariga birdaniga uch omil - milliy qadriyatlar, davlat siyosati va global axborot oqimlari ta'sir qilmoqda. Shu bois tadqiqot metodologiyasi bir yoqlama emas, balki kompleks tahlilga asoslanishi zarur.

Yoshlarni ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish masalasi nazariy jihatdan psixologik, ijtimoiy va siyosiy mexanizmlar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, bu jarayonni amaliy tadqiq etish uchun puxta metodologik asos zarur. Metodologiya nafaqat tadqiqot usullarining majmuasi, balki ularning mantiqiy izchilligi va uyg'unligi bo'lib, nazariya bilan empirik dalillar o'rtasida mustahkam aloqani ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida bunday metodologiya kompleks, interdisiplinar va integratsion xarakterga ega bo'lishi lozim. Chunki yoshlarning qarashlariga bir vaqtning o'zida milliy qadriyatlar, global axborot oqimlari va davlat siyosati ta'sir ko'rsatmoqda.

Yoshlarning murosasizlik qarashlari murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uni o'rganishda faqat bitta metod yetarli emas. Psixologik mexanizmlar, ijtimoiy muhit, identitet inqirozi, davlat siyosati va axborot oqimlarining ta'siri ko'p qatlamli jarayonni yuzaga keltiradi [11]. Shu sababli, tadqiqot metodologiyasi ham kompleks va interdisiplinar bo'lishi zarur. Bu nafaqat murosasizlik qarashlarining manbalarini, balki ularni neytrallashtirish yo'llarini ham aniqlashga imkon beradi.

Metodlar tanlanayotganda uch asosiy talab inobatga olinadi:

Ilmiy asoslanganlik – metodlar nazariy paradigmalarga mos kelishi kerak.

Amaliy samaradorlik – metodlar real ijtimoiy vaziyatni o'rganishga imkon yaratishi zarur.

Kontekstual moslik – metodlar O'zbekistonning madaniy, siyosiy va huquqiy sharoitlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda qo'llanadigan metodlar to'rt yirik guruhga bo'linadi: sotsiologik usullar, diskurs-tahlil, empirik-statistik metodlar va innovatsion yondashuvlar.

So'rovnomalarda yoshlarning qarashlari va mafkuraviy kayfiyatini keng miqyosda aniqlash uchun asosiy metodlardan biridir. Bu metod yoshlarning ekstremizmga, diniy bag'rikenglikka va millatlararo totuvlikka munosabatini aniqlashda ko'rsatkichlarda o'lchash imkonini beradi. Masalan, savollar: "Siz uchun murosasizlik nimani anglatadi?" yoki "Internetda radikal kontentga duch kelganingizda qanday munosabat bildirasiz?" kabi shakllantirilishi mumkin. So'rovnomalardan olingan natijalar matematik-statistik tahlil orqali qayta ishlanadi, bu esa yoshlarning mafkuraviy immunitet darajasini hududlar, jins, yosh toifalari bo'yicha solishtirish imkonini beradi.

Intervyular esa yoshlarning individual qarashlari va hayotiy tajribasini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

Kvale fikricha, intervyu respondent dunyoqarashini ochib beruvchi eng samarali metodlardan biridir [12]. Bu metod yordamida yoshlarning ekstremistik g'oyalarga qanday munosabat bildirayotgani, oilaviy va ta'limiy tarbiya ularning qarashlariga qanday ta'sir ko'rsatayotgani aniqlanadi. O'zbekiston sharoitida, masalan, diniy ta'lim muassasalari o'quvchilari bilan chuqur intervyular olib borish orqali diniy identitet va mafkuraviy qarashlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish mumkin.

Fokus-guruh metodida yoshlar kichik guruhlariga bo'linib, ekstremizm, bag'rikenglik va murosasizlik mavzularida muhokama olib boradilar. Bu usul yoshlarning o'zaro ta'sirini, qarashlarning muloqot jarayonida qanday o'zgarishini kuzatishga imkon beradi. Masalan, talaba-yoshlar orasida fokus-guruh muhokamalari tashkil etilganda, ayrim ishtirokchilarning radikal g'oyalarga nisbatan betaraflikdan murosasizlik pozitsiyasiga o'tishi kuzatilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tadqiqotning ilmiy yangiligi - yoshlarniekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish jarayonini bir butun, integratsion metodologik asosda o'rganish, shaxsiy pozitsiyamiz esa bu yondashuvning O'zbekiston sharoitida nafaqat nazariy, balki amaliy samaradorlik kasb etishini isbotlashdan iborat. Ushbu qarash dissertatsiyaning falsafiy-siyosiy asosini mustahkamlash bilan birga, yoshlar bilan ishlashning yangi ilmiy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Creswell J. W. Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches. – 4th ed. – Thousand Oaks: Sage, 2014.
2. Борум Р. Радикализация в насильственный экстремизм: обзор социальных теорий // Journal of Strategic Security. – 2011. – Т. 4, № 4. – С. 7–36.
3. Поппер К. Открытое общество и его враги. – Москва: Наука, 1998.
4. Хосрокхавар Ф. Радикализация: почему некоторые выбирают путь насилия. – Нью-Йорк: The New Press, 2017.
5. Гегель Г. Феноменология духа. – Москва: Наука, 2021.
6. Инглхарт Р., Вельцель К. Модернизация, культурные изменения и демократия: последовательность человеческого развития. – Кембридж: Cambridge University Press, 2005.
7. Гидденс Э. Ускользящий мир: как глобализация меняет нашу жизнь. – Нью-Йорк: Routledge, 2000.
8. Гегель Г. Феноменология духа. – Москва: Наука, 2021.
9. Mannheim K. The problem of generations // Essays on the sociology of knowledge. – London: Routledge & Kegan Paul, 1952. – С. 276–322.
10. Inglehart R., Welzel C. Modernization, cultural change, and democracy: The human development sequence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
11. Borum R. Radicalization into violent extremism: A review of social science theories // Journal of Strategic Security. – 2011. – Т. 4, № 4. – С. 7–36.
12. Kvale S. InterViews: An introduction to qualitative research interviewing. – Thousand Oaks: Sage, 1996.
13. Фэркло Н. Дискурс и социальные изменения. – Кембридж: Polity Press, 1992.